

UDK 338.45:69(575.1)

**QURILISH SANOATI KORXONALARI RIVOJLANISHINING  
IQTISODIY TENDENSIYALARI VA INSTITUTSIONAL OMILLAR  
TA’SIRI**

**G‘iyosov Ilhom Karimovich**

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O‘zbekiston

[giyosov.ilhom@list.ru](mailto:giyosov.ilhom@list.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston qurilish sanoati korxonalari rivojlanishining 2020–2025-yillardagi iqtisodiy tendensiyalari va ularga ta’sir etuvchi institutsional omillar tahlil qilingan. Rasmiy statistika asosida qurilish ishlari hajmi, real o‘sinh sur’ati, kichik tadbirkorlik ulushi va hududiy tarkib baholanib, normativ-huquqiy islohotlar, raqamlashtirish, davlat xaridlari va nazorat institutlarining korxona natijalariga o‘tish kanallari ochib berilgan. Institutsional muhitni korxona iqtisodiy natijalari bilan bog‘lovchi konseptual model taklif etilib, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, ma’lumotlar integratsiyasi va korporativ hisobdorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** qurilish sanoati, iqtisodiy tendensiyalar, institutsional muhit, raqamlashtirish, «Shaffof qurilish», kichik biznes, raqobat, tranzaksiya xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik.

**Аннотация.** В статье проанализированы экономические тенденции развития предприятий строительной отрасли Узбекистана в 2020–2025 годах и институциональные факторы, влияющие на них. На основе официальной статистики оценены объём строительных работ, темпы реального роста, доля малого бизнеса и региональная структура;

раскрыты каналы воздействия нормативно-правовых реформ, цифровизации, государственных закупок и институтов контроля на результаты предприятий. Предложена концептуальная модель, связывающая институциональную среду с экономическими результатами, и обоснованы приоритеты: сокращение транзакционных издержек, интеграция данных и развитие корпоративной подотчётности.

**Ключевые слова:** строительная отрасль, экономические тенденции, институциональная среда, цифровизация, прозрачность, малый бизнес, конкуренция, транзакционные издержки, экономическая эффективность.

**Abstract.** The paper analyses the economic trends in the development of construction enterprises in Uzbekistan in 2020–2025 and the institutional factors that shape them. Drawing on official statistics, it assesses the volume of construction works, real growth rates, the share of small business and the regional structure, and identifies the channels through which regulatory reform, digitalisation, public procurement and control institutions affect enterprise performance. A conceptual model linking the institutional environment to economic results is proposed, and the reduction of transaction costs, data integration and the development of corporate accountability are substantiated as priorities.

**Keywords:** construction industry, economic trends, institutional environment, digitalisation, transparency, small business, competition, transaction costs, economic efficiency.

**Kirish.** Qurilish sanoati investitsion faollik, urbanizatsiya va infratuzilma rivojini bog'lovchi tayanch tarmoq bo'lib, loyiha siklining uzoqligi, kontragentlar ko'pligi va kapital sig'imining yuqoriligi sababli institutsional muhit sifatiga alohida sezgir. Ruxsat berish tartib-taomillari, shaharsozlik hujjatlari, davlat xaridlari, texnik standartlar va raqamli axborot

almashinuvi korxona tannarxi, loyiha muddati va risklariga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois tarmoq rivojini faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, iqtisodiy va institutsional omillar birligida baholash zarur.

O'zbekistonda 2021–2025-yillarga mo'ljallangan tarmoq strategiyasi PF-6119-son Farmon bilan tasdiqlanib, normativ bazani yangilash, sifat nazorati, raqamlashtirish va bozor mexanizmlarini rivojlantirish vazifalari belgilandi [1]. Rasmiy statistikaga ko'ra qurilish ishlari hajmi 2020-yildagi 88,1 trln so'mdan [2] 2025-yilda 313,8 trln so'mga yetib, real o'sish 14,2 foizni tashkil etdi [3]. Kichik tadbirkorlik subyektlari 2025-yilda jami qurilish ishlarining 73,6 foizini bajardi [4], 2025-yil 1-avgust holatiga tarmoqda 29 232 ta korxona faoliyat yuritdi [5].

Ayni davrda davlat boshqaruvi PF-151-son Farmon bilan qayta tashkil etildi [6], shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlari PQ-299-son Qaror bilan belgilandi [7], «Shaffof qurilish» tizimining huquqiy va texnologik bazasi PQ-4464 hamda 732-son hujjatlar asosida rivojlantirildi [8; 9]. Shunday sharoitda iqtisodiy o'sishning qaysi qismi talab va investitsiyalarga, qaysi qismi qoidalar aniqligi, raqamli shaffoflik va raqobat sifatining yaxshilanishiga bog'liqligini izohlash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — qurilish korxonalari rivojlanishining asosiy iqtisodiy tendensiyalarini aniqlash va institutsional omillarning korxona natijalariga o'tish mexanizmini asoslash. Ilmiy yangilik sifatida omillar «qoidalar – axborot – raqobat – resurs – nazorat» zanjiri bo'yicha tizimlashtirilib, ularning tranzaksiya xarajatlari, axborot asimmetriyasi va risk taqsimoti orqali samaradorlikka ta'sirini ifodalovchi mualliflik modeli taklif etiladi. Bunda institutsional o'zgarishlarning korxona darajasidagi ta'siri bir xil emasligi — yirik pudratchi yangi talablarni maxsus bo'linmalar orqali tezroq o'zlashtirishi, kichik korxona esa ayni vazifani cheklangan resurs bilan bajarishi — alohida hisobga olinadi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** D.North institutlarni iqtisodiy subyektlar xatti-harakatini belgilovchi formal va norasmiy qoidalar sifatida talqin qilib, iqtisodiy natijalardagi barqaror tafovutlarni institutlar sifati bilan bog'laydi [10]. O.Williamson tranzaksiya xarajatlari nazariyasida noaniqlik, aktivlarning o'ziga xosligi va shartnomaviy munosabatlar boshqaruv shaklini belgilashini asoslaydi [11]. Qurilishda uzoq loyiha sikli va ko'p tomonlama shartnomalar mavjudligi ushbu yondashuvlarni ruxsat, tender va monitoring xarajatlarini samaradorlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rishga imkon beradi. M.Porter esa raqobat ustunligini korxona strategiyasi bilangina emas, talab sharoitlari, ta'minot tarmoqlari va davlat siyosatining uyg'unligi bilan izohlaydi [12] — bu qarash raqamli platformalarni ma'muriy vosita emas, bozor intizomini kuchaytiruvchi institutsional infratuzilma sifatida baholashga asos beradi.

MDH tadqiqotlarida S.V.Korolev qurilish rivojiga talab, material sig'imi, narx bosimi va davlat qo'llab-quvvatlashining birgalikdagi ta'sirini ko'rsatadi [13]. Mahalliy adabiyotlarda K.I.Kurpayanidi va hammualliflar qurilish iqtisodiyotini resurslar, kapital, rejalashtirish va rentabellik kategoriyalari orqali tizimlashtiradi [14]; M.S.Saidov va I.O.Karimov tarmoqdagi iqtisodiy islohotlar holati va rivojlanish strategiyalarini baholaydi [15]; Z.D.Arifdjanova islohotlarning tarmoq tendensiyalariga ta'sirini tahlil qiladi [16]; F.B.Usmonov va A.Sh.Rajabova BIM texnologiyasini samaradorlik va shaffoflik omili sifatida ko'rsatadi [17]; M.A.Usmanov uy-joy qurilishi dinamikasini hududiy talab bilan uyg'un holda o'rganadi [18].

Nazariy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi: North qoidalarining makrodarajadagi barqarorligini, Williamson ayni qoidalar sharoitida shartnoma xarajatlarining mikrodarajada shakllanishini, Porter esa natijaning bozor strukturasi bilan bog'liqligini izohlaydi. Biroq «institutsional o'zgarish – tranzaksiya xarajati – korxona natijasi» zanjirining barcha bo'g'inlari

yagona analitik tizimda yoritilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur maqolada to'ldiriladi.

Tadqiqotda institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida Milliy statistika qo'mitasining qurilish ishlari hajmi, o'sish sur'atlari, kichik tadbirkorlik va korxonalar soniga oid rasmiy ma'lumotlari olindi [2–5]; institutsional muhitni baholashda tarmoqqa oid farmon va qarorlar kontent-tahlil qilindi [1; 6–9]. Nominal dinamikani umumlashtirish uchun o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) hisoblandi.

**Tahlil va natijalar.** 2020–2025-yillar qurilish bozorining eng faol bosqichlaridan birini tashkil etadi: joriy narxlardagi hajm 88,1 trln so'mdan 313,8 trln so'mga yetib, 3,56 baravarga oshdi, nominal CAGR esa qariyb 28,9 foizni tashkil etdi. Biroq nominal ko'rsatkich narx omilini ham qamrab olgani sababli real dinamikani alohida ko'rish zarur: 2021–2024-yillarda real o'sish 6,6–10,0 foiz oralig'ida bo'lib, 2025-yilda 14,2 foizga tezlashdi (1-jadval).

**1-jadval. O'zbekistonda qurilish ishlari hajmi va real o'sish sur'ati,  
2020–2025-yillar**

| <b>Yil</b> | <b>Qurilish ishlari hajmi,<br/>trln so'm</b> | <b>Real o'sish sur'ati,<br/>%</b> | <b>2020-yilga<br/>nisbatan, marta</b> |
|------------|----------------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------|
| 2020       | 88,1                                         | 109,5                             | 1,00                                  |
| 2021       | 107,5                                        | 106,8                             | 1,22                                  |
| 2022       | 130,8                                        | 106,6                             | 1,48                                  |
| 2023       | 222,9                                        | 107,2                             | 2,53                                  |

| <b>Yil</b> | <b>Qurilish ishlari hajmi,<br/>trln so‘m</b> | <b>Real o‘sish sur‘ati,<br/>%</b> | <b>2020-yilga<br/>nisbatan, marta</b> |
|------------|----------------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------------|
| 2024       | 259,7                                        | 110,0                             | 2,95                                  |
| 2025       | 313,8                                        | 114,2                             | 3,56                                  |

*Manba: muallif tomonidan rasmiy statistika va normativ hujjatlar asosida tuzilgan.*

Jadval nominal hajm bilan real o‘sish o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatadi: 2023-yildagi joriy narxlardagi keskin sakrash real o‘sishdan ancha yuqori. Demak, tarmoq yoki korxona samaradorligini faqat bajarilgan ishlar qiymatining nominal o‘sishi orqali baholash metodologik jihatdan yetarli emas — rentabellik, unumdorlik, aktivlar aylanishi va loyiha tannarxi kabi mikroko‘rsatkichlar bilan birga tahlil qilish talab etiladi.

Bozorning ikkinchi tarkibiy xususiyati — kichik tadbirkorlikning yuqori ulushi. 2025-yilda kichik biznes subyektlari 230,9 trln so‘mlik ishni bajarib, jami hajmning 73,6 foizini ta‘minladi [4]. Bu moslashuvchanlik va raqobatni oshiradi, biroq moliyalashtirish, malaka va compliance imkoniyatlari korxonalar kesimida keskin farqlangani sababli bir xil institutsional talabning nisbiy xarajati kichik subyektlar uchun yuqoriroq bo‘ladi. Uchinchi xususiyat — hududiy konsentratsiya: 29 232 ta korxonaning 7 078 tasi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, besh yirik hudud ulushi qariyb 55,2 foizni tashkil etadi [5] (2-jadval).

**2-jadval. Qurilish korxonalarining hududiy taqsimoti, 2025-yil 1-avgust holatiga**

| <b>Hudud</b>       | <b>Korxonalar soni,<br/>birlik</b> | <b>Jami ulushi, %</b> |
|--------------------|------------------------------------|-----------------------|
| Toshkent shahri    | 7 078                              | 24,2                  |
| Toshkent viloyati  | 2 640                              | 9,0                   |
| Farg‘ona viloyati  | 2 177                              | 7,4                   |
| Samarqand viloyati | 2 164                              | 7,4                   |
| Buxoro viloyati    | 2 079                              | 7,1                   |
| Boshqa hududlar    | 13 094                             | 44,8                  |
| Jami               | 29 232                             | 100,0                 |

*Manba: muallif tomonidan rasmiy statistika va normativ hujjatlar asosida tuzilgan.*

Bunday konsentratsiya urbanizatsiya, investitsiya oqimlari, infratuzilma hamda moliya va kadrlar bozoriga yaqinlik bilan izohlanadi. Shu bois hududiy tahlilda korxonalar soni bilan bir qatorda buyurtma portfeli, asosiy kapital, unumdorlik va moliyaviy natijalarni ham kuzatish zarur.

Institutsional muhitning birinchi bloki — qoidalar va davlat boshqaruvi: PF-6119 tarmoq modernizatsiyasi va raqamlashtirishning strategik yo‘nalishlarini belgiladi [1], PF-151 boshqaruv va nazorat tuzilmalarini qayta tashkil etdi [6], PQ-299 esa hududlarni shaharsozlik hujjatlari bilan qamrab olish vazifalarini mustahkamladi [7]. Ikkinchi blok — raqamli axborot va shaffoflik: «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi [8] va uni «Elektron hukumat» bilan integratsiyalash [9] raqamlashtirishning asosiy iqtisodiy

samarasini qog'oz hujjatni elektronlashtirishdan emas, ma'lumotni bir marta kiritish va takroriy so'rovlarni qisqartirishdan izlashni taqozo etadi.

Uchinchi blok — raqobat, buyurtmalar va moliyalashtirish institutlari. Tenderda narxning mutlaq ustuvorligi qisqa muddatli tejamkorlik bersa-da, demping va sifat pasayishi xavfini kuchaytiradi; shu bois narx bilan birga sifat, muddat, reputatsiya va hayotiy sikl qiymatini hisobga oluvchi ko'p mezonli baholash muhim. To'rtinchi blok — sifat, texnik tartibga solish va barqarorlik: BIM, energiya samaradorligi va zamonaviy standartlar dastlab qo'shimcha kompetensiya talab qilsa-da, qayta ishlash va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytiradi [17]. Demak, institutsional talablarni qisqa muddatli compliance xarajati va uzoq muddatli iqtisodiy foyda birligida baholash lozim (3-jadval).

**3-jadval. Qurilish tarmog'idagi asosiy institutsional o'zgarishlar va ularning iqtisodiy ta'siri**


| <b>Davr</b> | <b>Institutsional o'zgarish</b>        | <b>Asosiy mazmun</b>                                       | <b>Korxona darajasidagi iqtisodiy ta'sir</b>                 |
|-------------|----------------------------------------|------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 2020–2021   | PF-6119 va tarmoq strategiyasi         | Modernizatsiya, normativ bazani yangilash, raqamlashtirish | Qoidalar aniqligi va rejalashtirish gorizontining kengayishi |
| 2019–2025   | «Shaffof qurilish» MAT va integratsiya | Elektron monitoring, ma'lumot almashinuvi, raqamli nazorat | Axborot asimmetriyasi va ma'muriy xarajatlarning qisqarishi  |

| <b>Davr</b> | <b>Institutsional<br/>o‘zgarish</b>      | <b>Asosiy mazmun</b>                                               | <b>Korxona<br/>darajasidagi iqtisodiy<br/>ta’sir</b>                 |
|-------------|------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| 2023        | PF-151 ma’muriy<br>islohoti              | Boshqaruv va nazorat<br>tuzilmalarini qayta<br>tashkil etish       | Vakolatlar aniqligi va<br>hisobdorlik<br>qamrovining<br>kengayishi   |
| 2023–2027   | PQ-299<br>shaharsozlik<br>dasturlari     | Aholi punktlarini<br>shaharsozlik hujjatlari<br>bilan qamrab olish | Loyiha va yer<br>parametrlari bo‘yicha<br>noaniqlikning<br>kamayishi |
| 2021–2025   | Texnik tartibga<br>solish va standartlar | Xavfsizlik, loyiha va<br>ekspertiza qoidalari                      | Sifat, risk va obyekt<br>hayotiy sikli<br>xarajatlariga ta’sir       |

*Manba: muallif tomonidan rasmiy statistika va normativ hujjatlar  
asosida tuzilgan.*

Tahlil institutsional omillarning korxona natijalariga bevosita emas, oraliq kanallar orqali ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Ruqsat jarayonining raqamlashtirilishi avvalo vaqt, ma’muriy xarajat va noaniqlikni kamaytiradi; buning natijasida loyiha boshlanishi tezlashib, kapital aylanishi yaxshilanadi. Ochiq tender va reyting tizimlari esa axborot asimmetriyasini qisqartirib, raqobat bosimini kuchaytiradi va korxonalarini xarajat hamda boshqaruv sifatini optimallashtirishga undaydi. Mualliflik modelida institutsional muhit besh guruhga — normativ qoidalar, raqamli shaffoflik, raqobat, moliya institutlari va sifat-barqarorlik talablariga ajratilib, ular tranzaksiya xarajatlari, axborot asimmetriyasi, bozorga kirish to‘siqlari hamda risk-resurs taqsimoti orqali korxona natijalariga bog‘lanadi (1-rasm).

*ilmiy –amaliy anjuman*



**1-rasm. Qurilish korxonalari iqtisodiy natijalariga institutsional muhit ta'sirining konseptual modeli**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Mazkur bog'liqlikni  $E = f(R, D, C, F, S | Z)$  ko'rinishida ifodalash mumkin:  $E$  — iqtisodiy natijalar;  $R$  — normativ-huquqiy muhit;  $D$  — raqamli shaffoflik;  $C$  — raqobat sifati;  $F$  — moliyalashtirish institutlari;  $S$  — standart va barqarorlik talablari;  $Z$  — korxona o'lchami, hududi va loyiha portfeli kabi nazorat omillari. Model konseptual xarakterga ega bo'lib, keyingi bosqichda korxonalar panel ma'lumotlari asosida parametrik baholanishi mumkin.

Institutsional samaradorlikni o'lchashda natija va jarayon indikatorlarini ajratish taklif etiladi. Natija indikatorlariga rentabellik, mehnat unumdorligi, aktivlar aylanishi va loyiha marjasi; jarayon indikatorlariga esa ruxsat va ekspertiza muddatlari, tenderdagi raqobat darajasi, hujjatlardagi qayta ishlashlar, kechikkan to'lovlar va aniqlangan nuqsonlar ulushi kiradi. Ayniqsa raqamlashtirish bo'yicha KPIlar platformalar soniga emas, vaqt va tranzaksiya xarajatlarining real qisqarishiga bog'lanishi maqsadga muvofiq.

Sababiy bog'liqlikni talqin qilishda ehtiyotkorlik ham zarur: qurilish hajmining o'sishi islohotlar bilan bir davrga to'g'ri kelgani ularning sababiy ta'sirini avtomatik isbotlamaydi, chunki investitsiya talabi, davlat dasturlari, narxlar va kredit sharoitlari ham natijaga ta'sir qiladi. Shu bois keyingi empirik tekshiruvlarda vaqt va hudud effektlarini nazorat qiluvchi panel regressiya qo'llanishi lozim. Tahlil asosida tarmoq samaradorligini

institutsional muhit orqali oshirishning ustuvor yo‘nalishlari ajratildi (4-jadval).

**4-jadval. Qurilish korxonalari samaradorligini institutsional muhit  
orqali oshirishning ustuvor yo‘nalishlari**

| <b>Yo‘nalish</b>                            | <b>Taklif etilayotgan mexanizm</b>                                                                         | <b>Kutilayotgan iqtisodiy natija</b>                             |
|---------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| Raqamli integratsiya                        | Kadastr, ekspertiza, tender va nazorat ma’lumotlarini yagona loyiha identifikatori bo‘yicha bog‘lash       | Takroriy ma’lumot kiritish va vaqt yo‘qotishlarining qisqarishi  |
| Riskka asoslangan tartibga solish           | Korxonalarni loyiha murakkabligi, sifat tarixi va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha risk toifalariga ajratish | Nazorat resurslarining yuqori riskli obyektlarga yo‘naltirilishi |
| Sifatli raqobat                             | Tenderda narx bilan birga sifat, muddat, reputatsiya va hayotiy sikl qiymatini baholash                    | Demping va sifatsiz bajarish riskining kamayishi                 |
| Kichik biznes uchun proporsional compliance | Standart elektron shablonlar, o‘quv modullari va soddalashtirilgan hisobot                                 | Kichik korxonalar tranzaksiya xarajatlarining kamayishi          |
| Moliyaviy shaffoflik                        | Loyiha pul oqimi, qarzdorlik va kafolatlarni standart formatda yuritish                                    | Kapital qiymati va likvidlik riskining pasayishi                 |

| <b>Yo‘nalish</b>     | <b>Taklif etilayotgan mexanizm</b>                                                     | <b>Kutilayotgan iqtisodiy natija</b>                               |
|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| Korporativ boshqaruv | Ichki nazorat, risk reyestri, manfaatlar to‘qnashuvi va audit amaliyotini kuchaytirish | Investitsion jozibadorlik va uzoq muddatli rentabellikning oshishi |

*Manba: muallif tomonidan rasmiy statistika va normativ hujjatlar asosida tuzilgan.*

### **Xulosa**

2020–2025-yillarda O‘zbekiston qurilish sanoatida yuqori iqtisodiy dinamika shakllandi: nominal hajm 88,1 trln so‘mdan 313,8 trln so‘mga oshdi, 2025-yilda real o‘shish 14,2 foizga yetdi. Biroq nominal hajmning tez o‘shishi korxona samaradorligi oshganini avtomatik anglatmaydi — tarmoq monitoringiga unumdorlik, rentabellik, aktivlar aylanishi va tannarx intizomi bo‘yicha korxona darajasidagi indikatorlar kiritilishi zarur.

Kichik tadbirkorlikning 73,6 foizlik ulushi institutsional siyosatda proporsionallik tamoyilini talab qiladi: sifat va xavfsizlik standartlari umumiy bo‘lib qolgan holda, hisobot va compliance vositalari kichik korxonalar uchun sodda va xarajatni tejoychi shaklda tashkil etilishi lozim. Korxonalarning yarmidan ko‘pi besh yirik hududda jamlangani esa hududiy investitsiya, moliyalashtirish va kadrlar bozorining notekisligini ko‘rsatadi.

Institutsional islohotlar samarasi hujjatlar soniga emas, ularning loyiha sikli bo‘yicha o‘zaro muvofiqligi va raqamli integratsiyasiga bog‘liq. Shu bois institutsional samaradorlikni ruxsat va kelishuv muddatlari, ma’lumotlar takrorlanishi, nizolar va loyiha kechikishlarining kamayishi orqali baholash lozim; «Shaffof qurilish» va boshqa tizimlarning keyingi bosqichi yagona loyiha identifikatoriga asoslangan ma’lumot oqimini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Davlat va korporativ xaridlarda narx bilan bir qatorda sifat, muddat, moliyaviy barqarorlik va hayotiy sikl qiymatini hisobga oluvchi ko'p mezonli baholashni kengaytirish dempingning salbiy oqibatlarini kamaytiradi. Korxona darajasida esa korporativ boshqaruv, ichki nazorat va risk menejmenti tizimlarini rivojlantirish tashqi islohotlarning mikroiktisodiy samaraga aylanishi uchun zarur shartdir.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan model korxonalar kesimidagi panel ma'lumotlar asosida ekonometrik tekshirilishi, normativ aniqlik, raqamli shaffoflik, tender raqobati va boshqaruv sifati indikatorlarining rentabellik hamda unumdorlikka ta'siri miqdoriy baholanishi maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qurilish ishlari hajmi (yillik), 2010–2024-yillar statistik qatori. – URL: <https://stat.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yilda O'zbekistonda 313,8 trln so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. 22.01.2026. – URL: <https://stat.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari. 26.01.2026. – URL: <https://stat.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qurilish korxonalari soni bo'yicha qaysi hududlar yetakchi? 20.08.2025. – URL: <https://stat.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi PF-151-son Farmoni. – URL: <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son Qarori. – URL: <https://lex.uz>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4464-son Qarori. – URL: <https://lex.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi 732-son Qarori. – URL: <https://lex.uz>
10. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
11. Williamson O.E. The New Institutional Economics: Taking Stock, Looking Ahead // Journal of Economic Literature. – 2000. – Vol. 38, No. 3. – P. 595–613.
12. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
13. Королев С.В. Строительная отрасль России: проблемы и перспективы // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2023. – Т. 22, № 3. – С. 65–70. DOI: 10.24182/2073-6258-2023-22-3-65-70
14. Kurpayanidi K.I., Abdullaev A.M., Ashurov M.S., Nabieva N.M., Salimov A.A. Ekonomika stroitel’sstva: uchebnik. – Farg‘ona: Al-Ferganus, 2024. – 404 s.
15. Saidov M.S., Karimov I.O. O‘zbekiston qurilish sanoatidagi iqtisodiy islohotlar: holat va rivojlanish strategiyalari // Marketing Journal. – 2025. – № 5.
16. Arifdjanova Z.D. Qurilish tarmog‘ida olib borilayotgan islohotlar va ularning rivojlanish tendensiyalari // Marketing Journal. – 2025. – № 11. DOI: 10.67668/mj/2025iss11/559
17. Usmonov F.B., Rajabova A.Sh. BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – T. 3, № 7. DOI: 10.5281/zenodo.15856850
18. Usmanov M.A. O‘zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlanishi tahlili // Marketing Journal. – 2025. – № 9. – B. 219–226.